



1914–1918 YILLARDA TURKISTON O‘LKASIDA CHET ELLIK URUSH ASIRLARI: TARIXIY TAHLIL

Oralov Dostonbek Rustam o‘g‘li,

Qarshi davlat universitet tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Birinchi jahon urushi yillarida (1914–1918) Turkiston o‘lkasiga keltirilgan chet ellik urush asirlarining soni, ijtimoiy tarkibi, mehnatga jalb etilishi, kundalik hayoti va ularning mahalliy jamiyat bilan munosabatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Rossiya imperiyasi harbiy-siyosiy siyosatining Turkistondagi aks-sadosi sifatida asirlarning o‘lkada joylashtirilishi, iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarda foydalanilishi o‘rganiladi. Maqola arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar hamda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Birinchi jahon urushi, urush asirlari, Rossiya imperiyasi, mehnat safarbarligi, lagerlar, infratuzilma, ijtimoiy tarix.

Foreign prisoners of war in the Turkestan region during 1914–1918: a historical analysis

Abstract. This article analyzes foreign prisoners of war brought to the Turkestan region during World War I (1914–1918), focusing on their number, social composition, labor use, daily life, and interaction with the local population. It examines how the Russian Empire employed these prisoners in economic and infrastructural projects in Turkestan. The study is based on archival documents, statistical data, and scholarly research.

Keywords: Turkestan, World War I, prisoners of war, Russian Empire, labor mobilization, camps, social history, infrastructure, demography.

Иностранные военнопленные в Туркестанском крае в 1914–1918 годах: исторический анализ

Аннотация. В статье исследуются иностранные военнопленные, прибывшие в Туркестан в годы Первой мировой войны (1914–1918), их



численность, социальный состав, условия жизни, вовлечение в труд и отношения с местным населением. Рассматривается использование пленных Россией в хозяйственных и инфраструктурных проектах региона. Исследование основано на архивных материалах, статистике и научных трудах.

Ключевые слова: Туркестан, Первая мировая война, военнопленные, Российская империя, трудовая мобилизация, лагеря, социальная история, инфраструктура, демография.

Kirish.

XX asr boshlarida dunyo tarixida yuz bergan eng yirik geosiyosiy silkinishlardan biri — Birinchi jahon urushi (1914–1918) insoniyat taraqqiyotiga ulkan talafotlar, siyosiy tizimlarning yemirilishi va yangi davlatlarning shakllanishi kabi chuqur iz qoldirgan global voqea bo'ldi. Bu urush nafaqat Yevropa mamlakatlarida, balki Rossiya imperiyasining uzoq mustamlaka hududlari, jumladan, Turkiston o'lkasida ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning keskinlashuviga sabab bo'ldi. Urushning bevosita front hududlarida kechgan janglar bilan birga, uning demografik, iqtisodiy va madaniy ta'siri imperiyaning chekka mintaqalarida ham sezilarli bo'ldi.

Birinchi jahon urushi davomida Rossiya qo'shinlari tomonidan qo'lga olingan avstriyalik, nemis, venger, chex, slovak, polyak, turk va boshqa millat vakillari millionlab urush asirlari sifatida imperiyaning turli hududlariga jo'natildi. Ular orasida minglab kishilar Turkiston o'lkasiga keltirilgan bo'lib, bu jarayon imperiyaning mustamlaka siyosati va iqtisodiy strategiyasi bilan chambarchas bog'liq edi. Turkistonning geografik joylashuvi, harbiy-siyosiy ahamiyati va mintaqada mehnat resurslarining yetishmasligi Rossiya ma'muriyatini urush asirlaridan keng foydalanishga undagan.



1914–1918 yillar mobaynida Turkiston o‘lkasiga keltirilgan chet ellik urush asirlari mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy tizimida muhim o‘rin egalladi. Ularning mehnati temir yo‘l qurilishi, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, sanoat korxonalari, kanal qazish va shahar infratuzilmasi kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llanildi. Asirlarning jalb qilinishi natijasida mintaqqa iqtisodiyoti qisman tiklangan bo‘lsa-da, bu jarayon mahalliy aholi uchun ma‘lum ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni ham keltirib chiqardi. Turkiston shaharlarida va qishloq hududlarida asirlar ishtirokida barpo etilgan ko‘plab obyektlar o‘lkadagi modernizatsiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Urush asirlarining Turkistondagi kundalik hayoti, yashash sharoitlari, lagerlar tizimi, mahalliy aholi bilan o‘zaro munosabatlari va ular duch kelgan turmush qiyinchiliklari masalasi hozirgacha yetarlicha o‘rganilmagan. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, asirlar hayoti hududlar bo‘yicha keskin farqlangan: ba’zi lagerlarda tegishli tibbiy yordam, oziqlanish va mehnat sharoitlari ta‘minlangan bo‘lsa, ayrim chekka o‘choqlarda ular og‘ir mehnat, kasalliklar va nazoratning sustligi sababli ko‘plab talafotlarga uchragan. Shu bilan birga, hunarmandchilikka ega bo‘lgan asirlar mahalliy bozorlar, ustaxonalar va shaharsozlik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

1917 yil inqiloblari va Rossiya imperiyasining parchalanishi urush asirlarining Turkistondagi taqdirini yanada murakkablashtirdi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, harbiy-inqilobiy harakatlar, iqtisodiy inqiroz va fuqarolar urushi sharoitida asirlar ustidan nazorat susaydi. Ba’zilar qochishga uringan, boshqalari esa o‘lkada qolib, mahalliy hayotga moslashgan yoki keyinchalik Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilgan.

Mazkur mavzuni ilmiy o‘rganish Turkistonning XX asr boshlaridagi demografik jarayonlarini, mustamlaka siyosati oqibatlarini, mintaqaning modernizatsiya tajribasini hamda turli madaniy-milliy guruhlar o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, urush asirlarining hayoti



va mehnati haqidagi tarixiy faktlar mintaqa ijtimoiy tarixining muhim, ammo hali yetarlik darajada tadqiq qilinmagan yo‘nalishidir.

Ushbu maqola ana shu masalalarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilishni, arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, o’sha davr matbuoti va zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlariga tayangan holda Turkiston o‘lkasidagi chet ellik urush asirlarining holatini har tomonlama yoritishni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1914–1918 yillarda Turkiston o‘lkasida chet ellik urush asirlari masalasi tarixshunoslikda nisbatan kam yoritilgan bo‘lib, asosiy ma’lumotlar Rossiya imperiyasi arxivlari, Turkiston general-gubernatorligi hujjatlari, Yevropa davlatlaridagi urush esdaliklari hamda zamonaviy o‘zbek va rossiyalik tadqiqotchilar ishlarida uchraydi.

Markaziy manbalar sifatida Turkiston general-gubernatorligiga qarashli fondlardagi urush asirlari ro‘yxatlari, ularni mehnatga jalb qilish tartiblari va lagerlar haqidagi statistik ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu manbalar mintaqada asirlar ustidan nazorat, intizom, tibbiy ta’minot va ishchi kuchi sifatidagi ahvoli haqida batafsil dalillar beradi.

Rossiya tarixshunosligida T.V. Kotyukova, N. E. Jurbina, A. Belyayev va boshqa tadqiqotchilar imperiya hududlaridagi asirlar tizimini o‘rgangan bo‘lsalar-da, Turkiston masalasi cheklangan tarzda tilga olingan.

G‘arb manbalari, xususan avstriyalik, vengriyalik va nemis asirlarining kundaliklari Turkistondagi lagerlar, mahalliy aholi bilan munosabatlar va og‘ir mehnat sharoitlari haqida muhim tasavvur beradi.

O‘zbekiston tarixchilari Q.Rajabov, Doroshenko T.I., Hamid Ziyoyev kabi olimlar XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rgangan bo‘lsalar-da, urush asirlari mavzusi alohida kompleks tadqiqot sifatida hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Adabiyotlar tahlili mazkur mavzuning statistik ma’lumotlar nomutanosibli, mahalliy aholi va asirlar o‘zaro munosabatlarining yetarlicha



o'rganilmaganligi, ayrim arxivlarning ilmiy muomalaga kiritilmaganligi kabi bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston o'lkasiga keltirilgan nemis, avstriya-venger va boshqa ittifoqchi davlatlar harbiy asirlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rnini tarixiy manbalar asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, metodologik asos sifatida tarixiylik, ilmiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayanadi. Tadqiqotda avvalo tarixiy-taqqoslash usuli qo'llanib, urush asirlarining Turkiston mintaqasidagi turmush sharoitlari, mehnat faoliyati, huquqiy maqomi va mahalliy aholi bilan munosabatlari boshqa Rossiya imperiyasi hududlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Manbashunoslik yondashuvi asosida Rossiya imperiyasi Harbiy vazirligi hujjatlari, Turkiston general-gubernatorligi farmoyishlari, harbiy lagerlar to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari, statistika hisobotlari, zamonaviy matbuot materiallari hamda harbiy asirlarning shaxsiy xotiralari kabi turli manbalar majmui o'rganildi. Tarixiy-demografik metod orqali asirlar soni, milliy tarkibi, hududlar bo'yicha taqsimlanishi hamda o'lim holatlari haqidagi statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Sotsiologik-tahliliy yondashuv yordamida harbiy asirlarning Turkiston iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi, jumladan temir yo'l qurilishi, sanoat korxonalari va irrigatsiya tizimlaridagi mehnati baholandi. Shuningdek, mintaqaviy yondashuv asosida asirlar joylashtirilgan Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo va Kaspiyorti hududlari alohida o'rganilib, mahalliy sharoitlarning ularning hayot tarziga ta'siri aniqlashtirildi. Tahlil va sintez metodlari orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar va statistik ma'lumotlar bir butun ilmiy konsepsiya sifatida umumlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi turli manbalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, ularni ishonchlilik darajasi bo'yicha baholash va tarixiy voqelikning xolis rekonstruksiyasini yaratishni maqsad qiladi.

Tahlil va natijalar. 1914–1918 yillarda Turkiston o'lkasidagi harbiy asirlar masalasi bo'yicha olib borilgan tahlillar, avvalo, mintaqaning strategik va iqtisodiy



jihtadan muhim hudud sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston front orti funksiyasini bajarganligi sababli, bu yerga minglab nemis, avstriya-venger, chex, polyak va boshqa millatlarga mansub harbiy asirlar yuborilgan. Arxiv materiallari 1915–1917 yillarda asirlar oqimi eng yuqori nuqtaga chiqqanini, ayniqsa Sharqiy frontdagi janglarning kuchayishi bilan Turkistonga ko‘proq asir jo‘natilganini tasdiqlaydi. Ushbu jarayon mintqa demografik tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keltirgan.

Avstro-Vengriya va Germaniya armiyasining harbiy asirlari 1914 yil sentyabr oyidan boshlab Turkistonga keltira boshlandi. Ular shoshilinch tarzda Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlarining kazarmalarida, maxsus qurilgan 37 ta lager va boshqa odamlar yashashiga moslashtirilgan binolarda joylashtirildi. Harbiy asirlarni saqlash va ularga munosabat masalalari 1907 yilda imzolangan Gaaga konventsiyasi bilan tartibga solingan bo‘lib, keyinchalik urushda ishtirok etgan deyarli barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan edi. Konventsiya harbiy asirlarni “Yurtning qonuniy himoyachisi” sifatida tan olib, ularni asirlikda insoniy muomala bilan ta’minlash lozimligini belgilaydi. Rossiyada ham harbiy asirlar to‘g‘risida o‘z Nizomi qabul qilingan bo‘lib, u Gaaga konventsiyasining qoidalarini deyarli to‘liq takrorlaydi, garchi Rossiyada harbiy asirlar bilan shug‘ullanuvchi alohida muassasa tashkil qilinmagan bo‘lsa ham. Shvetsiya, Daniya, Ispaniya va AQSh urush davrida Rossiyadagi avstro-venger va nemis fuqarolari manfaatlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga olgan.

1914–1915 yillarda harbiy asirlar bilan birga Turkistonga ma’lum miqdorda “fuqarolik asirlari” yoki “harbiy unvoni bo‘lmagan harbiy asirlar” ham keltirilgan. Ular Avstro-Vengriya va Germaniya fuqarolari bo‘lib, nemis, polyak va boshqa millat vakillari, chaqiruv yoshidagi shaxslar bo‘lib, qirollik qo‘shinlari tomonidan dushman hududidan olib ketilgan edi.

O‘rta Osiyoda taxminan 150 ming harbiy asir nisbatan qisqa vaqt davomida saqlangan. Markaziy hududlarda mehnat kuchi yetishmovchiligi ortib borayotgani



sababli, 1915 yil iyun oyidan boshlab O'rta Osiyodan Kazan okrugi va Ukrainaga katta partiyalar bilan asirlar jo'natila boshlandi. 1914–1915 yillarda O'rta Osiyoda katta miqdorda harbiy asirlarning paydo bo'lishi mahalliy va yevropalik aholining moddiy ahvolini sezilarli darajada yomonlashtirdi, oziq-ovqat va sanoat tovarlari yetishmovchiligi, sanitariya sharoitining yomonlashuvi, shuningdek, ma'muriyat oldida murakkab masalalar va muammolar paydo bo'lishiga olib keldi.

Asirlarning iqtisodiyotga jalb etilishi tahlili ularning mintaqa taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shganini ko'rsatadi. Ular temir yo'l qurilishida, sanoat korxonalarida, konchilik ishlarida, paxta yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida, shuningdek, suv inshootlari va irrigatsiya tizimlari barpo etilishida faol qatnashgan. Ayniqsa, muhandislik malakasiga ega bo'lgan nemis va avstriya asirlarining ishtiroki bilan bir qancha texnik loyihalar tezroq amalga oshirilgan. Ba'zi hujjatlarda ko'plab obyektlar mahalliy ishchi kuchi orqali bunday sur'atda qurilishi qiyin bo'lganini qayd etadi. Demak, asirlar mintaqa infratuzilmasi shakllanishida ajralmas omil bo'lgan.

Harbiy asirlarning yashash sharoitlari esa ko'proq murakkab va og'ir bo'lgan. Rossiya imperiyasining amaldagi qonunlari ularga ma'lum huquqlarni kafolatlagan bo'lsa-da, Turkistonning iqlimi, oziq-ovqat ta'minotining sustligi, epidemiyalar va tibbiy xizmatning past darajasi o'lim ko'rsatkichlarining oshishiga olib kelgan. 1916–1917 yillardagi ich terlama, gripp va boshqa yuqumli kasalliklar oqibatida ko'plab asirlar hayotdan ko'z yumgan. Bu holat o'sha davr yillik hisobotlari va lager tibbiy bo'limlarining statistik ko'rsatkichlarida aniq aks etgan.

Mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlar masalasi ham tahlillarda muhim o'rin tutadi. Bir tomondan, asirlar hunarmandchilik buyumlari tayyorlab mahalliy bozorlarda sotgan, aholiga xizmat ko'rsatgan, texnik bilimlarini ulashgan. Ko'plab shahar va qishloqlarda asirlar ishtirokida qurilgan ustaxona, ko'prik, kichik texnik inshootlar mahalliy aholining iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Boshqa tomondan esa, ayrim joylarda ular xavfli yoki yot kuch sifatida qabul qilingan, bu



esa ehtiyotkorlik va nazoratning kuchayishiga olib kelgan. Ba'zi manbalarda asirlar bilan mahalliy aholi o'rtasidagi madaniy aloqalar, hatto oila qurish holatlari ham qayd etilgan.

Madaniy-madaniy ta'sir jihatidan ham asirlarning o'lkada ma'lum iz qoldirgani kuzatiladi. Nemis va avstriya asirlarining qurilish texnologiyalari, musiqa san'ati, temirchilik, duradgorlik, mexanik ustachilik borasidagi tajribasi mahalliy hunarmandlar tomonidan o'zlashtirilgan. Ba'zi san'at namunalari va texnik qurilmalar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Urush tugagach, ko'pchilik asirlar vatanga qaytarilgan bo'lsa-da, ayrim ma'lumotlarda bir necha o'nlab kishilar mintaqada qolib ketgani, yerli aholi orasida iqtisodiy faoliyatini davom ettirgani qayd etiladi. Bu holat mintaqada ijtimoiy-madaniy muhitida asirlar ta'sirining uzoq muddatli iz qoldirganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, chet ellik urush asirlari Turkiston o'lkasining Birinchi jahon urushi yillaridagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Ular mintaqada mehnat resurslari yetishmasligini qoplagan, infratuzilma va sanoat loyihalarining amalga oshirilishiga hissa qo'shgan, mahalliy aholining texnik ko'nikmalarini boyitgan, shu bilan birga, urush sharoitining qiyinchiliklarini boshdan kechirgan hamda o'lkada tarixida murakkab, ammo ahamiyatli iz qoldirgan.

Xulosa. 1914–1918 yillarda Turkiston o'lkasiga keltirilgan chet ellik urush asirlari mintaqaning Birinchi jahon urushi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin egalladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ular Rossiya imperiyasining strategik va iqtisodiy maqsadlariga xizmat qilgan, mehnat resurslarining yetishmasligini qoplagan, temir yo'l, sanoat korxonalari, irrigatsiya tizimlari va shahar infratuzilmasi loyihalarida faol qatnashgan.



Harbiy asirlarning yashash sharoitlari va kundalik hayoti turli hududlarda keskin farqlangan: ba'zi lagerlarda ular insoniy sharoitlarda yashagan bo'lsa, ayrim chekka hududlarda qiyin mehnat, kasallik va oziq-ovqat yetishmovchiligi tufayli ko'plab talafotlar kuzatilgan. Shu bilan birga, hunarmandchilik, texnik bilimlar va madaniy faoliyat orqali mahalliy aholi bilan o'zaro aloqalar shakllangan va mintaqaviy modernizatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Urush tugagach, ko'pchilik asirlar vatanga qaytarilgan bo'lsa-da, ayrimlari mintaqada qolib, mahalliy hayotga moslashgan va iqtisodiy faoliyatni davom ettirgan. Bu holat chet ellik urush asirlarining Turkiston ijtimoiy-madaniy muhitida uzoq muddatli iz qoldirganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, maqola orqali o'rganilgan tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, urush asirlari mintaqaning demografik, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ajralmas omil bo'lgan. Tadqiqot shuningdek, Turkistonning XX asr boshlaridagi mustamlaka siyosati, urush davridagi mehnat safarbarligi va turli millat vakillari o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston SSR tarixi. Toshkent: Fan, 1968. T. 2. 662 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi (O'RMDA). F. I-737. Op. 1. D. 90.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi (OMA). F.I-1. Op. 3. D. 1268, varaq 23.
4. Матвеев А.М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях к Великому Октябрю. Ташкент: Фан, 1977. С. 32.
5. Котюкова Т.В. Туркестанский плен: немецкие и австро-венгерские военнопленные в Русском Туркестане в годы Первой мировой войны.
6. Журбина Н.Е. Военнопленные Германии на территории России в годы Первой мировой войны (1914–1918 гг.).
7. Дорошенко Т.И. Положение военнопленных в Туркестане в годы Первой мировой войны // Вестник науки и образования. № 10(113), Часть 1, 2021.